

BAYSTAR SC VA FANDEF-M DEFOLIANTLARI ME’YORLARINING PAXTA TOLASI SIFATIGA TA’SIRI

Bo‘riyeva S.Z., mustaqil tadqiqotchi,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Djumayev Sh.B. q.x.f.f.d., k.i.x.,
PSUYEAITI Qashqadaryo ITS.

Annotatsiya. O‘rta tolali g‘o‘za naviga o‘rtacha kunlik harorat 25,0°C dan yuqori bo‘lganda qo‘llanilgan Baystar SC defoliantini 0,6 l/ga me‘yori va FanDEF-M defoliantini 7,0 l/ga me‘yori sepilgan variantlarda birinchi terim salmog‘i defoliant sepilmagan variantga nisbatan defoliantlarga mos ravishda 11,7 va 12,2 % ga yuqori bo‘lgan. O‘rta tolali g‘o‘za naviga qo‘llanilgan Baystar SC va FanDEF-M defoliantlarini uch xil me‘yorlari qo‘llanilganda tola defoliantlar ta’sirida yuqori va juda yuqori ip yigiriluvchanlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. Defoliantlarni o‘rtacha me‘yorda qo‘llash esa ip yigiriluvchanlik koeffitsiyentining nazorat variantiga nisbatan pasayishiga (145-143) olib kelgan. Preparatlarni eng kam me‘yori tolaning mustahkamligiga ijobiy ta’sir etgan bo‘lsa, yuqori me‘yori esa bu ko‘rsatkichga salbiy ta’sir etgan.

Kalit so‘zlar: defoliantlar, me‘yorlar, o‘rtacha kunlik harorat, hosildorlik, tola sifat ko‘rsatkichlari, tola ip yigiriluvchanligi, tolaning pishib yetilganligi, tolaning shtapel uzunligi, mikroneyr, tola uzunligi bo‘yicha bir xillik koeffitsiyenti, tola mustahkamligi, uzilishdagi uzayish, elastiklik.

Аннотация: У средневолокнистых сортов хлопчатника при среднесуточной температуре выше 25,0°C по примененные дефолианты Baystar SC в норме 0,6 л/га и FanDEF-M в норме 7,0 л/га, масса первого урожая по сравнению с вариантом без дефолианта были выше соответствует на 11,7 и 12,2%. В средневолокнистым хлопчатника примененные три различных дозы дефолиантов Baystar SC и FanDEF-M волокно имели очень высокий пряжи под действием дефолиантов. Умеренное использование дефолиантов привело к снижению коэффициента прядения пряжи по сравнению с контрольным вариантом (145-143). Наименьшая доза препаратов положительно влияла на прочность волокно, а максимальная - отрицательно на этот показатель.

Ключевые слова: дефолианты, дозы, среднесуточная температура, урожайность, показатели качества волокна, прядения пряжи, зрелость волокна, длина штапельного волокна, микронейр, коэффициент однородности длины волокна, прочность волокна, удлинение при разрыве, эластичность.

Abstract. In medium fiber cotton varieties at an average daily temperature above 25.0°C, when were applied defoliant Baystar SC at a rate of 0.6 l/ha and FanDEF-M at a rate of 7.0 l/ha, the weight of the first harvest was higher corresponds to 11.7 and 12.2% compared to the option without defoliant. In medium fiber cotton varieties applied had three different doses of Baystar SC and FanDEF-M defoliant were very high yarn yield under the influence of defoliant. Moderate use of defoliant led to a decrease in the fabric ratio compared to the control variants (145-143). The smallest dose of defoliant had a positive effect on fiber strength, and the maximum dose had a negative effect on this trait.

Keywords: defoliant, doses, average daily temperature, yield, fiber quality indicators, yarn spinning, fiber maturity, staple fiber length, micronaire, uniformity coefficient of fiber length, fiber strength, elongation, elasticity.

Kirish. Bir tomondan yer yuzidagi global iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi va boshqa bir qator tabiiy muammolar qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishga to‘sqinlik qilsa va ikkinchi tomondan yer yuzida aholi sonining ortib borishi uning hayotiy ehtiyojini (oziq-ovqat va kiyim-kechak va boshqalar) qondirish uchun hozirgi kecha kunduzdagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinayotgan hosildorligi kamlik qiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda har xil tabiiy va sun‘iy degradatsiyalar mavjud qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlanadigan ekin maydonlarini kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu muammolarni ijobiy yechimi uchun qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlaridan olinadigan hosildorlikni oshirish va shu bilan birga uning sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Qishloq xo‘jaligida g‘o‘za ekini hosilini paxta tolasi xalqni kiyim-kechak bilan ta’minlashga hissa qo‘shsa, uning chigitidan olinadigan kimyoviy tarkibi bo‘yicha sifatli [1] hisoblangan yog‘i esa xalqning oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi.

Bu ekinni parvarishlashda undan yuqori va sifatli hosil olish uchun o‘tkaziladigan ilg‘or agrotexnik tadbirlar (yerni shudgorlashdan toki hosilini yig‘ishtirib olgunga qadar o‘tkaziladigan tadbirlar: chigitga kimyoviy ishlov berish, o‘g‘itlash, biostimulyatorlar bilan ishlov berish, tashqi omillarga (jazirama issiq, garmsel va qum-changli shamollar) qarshi har xil antistressantlarni qo‘llash, begona o‘tlarga qarshi kimyoviy preparatlarni qo‘llash, defoliatsiya tadbirlarini o‘tkazish o‘simlik rivojiga ham ijobiy ham salbiy ta’sir etadi.

Shuning uchun har bir o‘tkaziladigan agrotadbirlarni ayniqsa bu agrotadbirlarda kimyoviy preparatlar qo‘llaniladigan bo‘lsa uning ta’sirini atroflicha o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

G‘ozadan yuqori va sifatli hosil olish uchun uning navlarini xillari va biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, hosilini ma’lum qismi (45-50 yoki 65-70 %) ochilgach defoliantlarni ilmiy sinovlarda ma’qullangan me‘yorlari qo‘llanilishi hisobiga ertaki va sifatli hosil olishni ta’minlaydi.

Defoliantlarni samarasi atrof-muhitdagi haroratga, tuproq namligiga, o‘simlikning holatiga defoliantlarning kimyoviy xusu-

siyatlariga o'ta bog'liq bo'ladi.

Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda g'o'za o'simligiga yumshoq ta'sir etuvchi defoliantlardan Avguron ekstra preparatini maqbul sepish muddati kunlik harorat 20-22°C bo'lganda yuqori samara olingani kuzatilgan [2]. Shu bilan birga, ushbu defoliantlar g'o'za ekiniga qo'llanilganda nafaqat uning bargini sun'iy tushishini, shuningdek, ko'saklar ochilishini 12-15 % ga oshiradi hamda kuzgi salqin ob-havoda ko'payadigan so'ruvchi hasharotlarning to'liq nobud bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida bu zararli hasharotlarni ko'p miqdorda qishlashiga yo'l qo'ymaydi, ya'ni kelgusi yilda uning miqdorining kam bo'lishiga olib keladi.

Tarkibida xlorat bo'lgan defoliantlarni g'o'zada ishlatish natijasida barg tushishini 86-87 % ga, ko'sak ochilishini esa 88-89 % ga va defoliant sepilgandan 14 kun o'tgach o'simliklardagi so'ruvchi hasharotlarni 100 % ga nobud bo'lishi kuzatilgan [3].

Tadqiqot o'tkazilgan joy va o'tkazish uslubi. Tadqiqotlar 2020-2022 yillarda Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, A.Navoiy hududida joylashgan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasiga qarashli ishlab chiqarish dala maydonida o'tkazildi. Bunda ikki xil defoliantlarning (Baystar SC, FanDEF-M) uch xil me'yorlari (Baystar SC defoliantini 0,5-0,6-0,7 l/ga va FanDEF-M defoliantini 5-6-7 l/ga) o'rtacha kunlik haroratlarga (o'rtacha kunlik harorat 25-30 °S; 22-25 °S; 20-22 °S; 17-20 °S bo'lganda) bog'liq holda samaradorligini aniqlash bo'yicha sinovlar o'tkazildi. Ushbu maqolada tajribani o'rtacha kunlik harorat 25 °S dan yuqori bo'lgan sharoitda o'tkazilgan qismidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Har bir variant eni 3,6 metr, uzunligi 15 metr, maydoni 54 m² ni tashkil etdi. Variantlar uch qaytariqda, uch yarusda, variantlar

rendimizatsiya usulida joylashtirilib, qog'oz yoriqlar ilingan o'simliklarda fenologik kuzatuvlar o'tkazildi.

Tajribani joylashtirish, ularda dala kuzatuvlarini o'tkazish, laboratoriya tahlillarini o'tkazish umumqabul qilingan "Paxta bilan o'tkaziladigan dala tajribalarining uslubi" (1981 yil) [4], "Genetika. Seleksiya i semenovodstvo xlopchatnika" (1987 g) [5], "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007 y) [6] metodik uslublarga asoslanib o'tkazildi.

Tadqiqot o'tkazilgan hudud Qarshi cho'lining iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental va shu bilan birga yozi issiq, qishi ancha sovuq bo'lgan joyga mansub. Qishda shimoliy Arktika sovuq havo oqimlari kelib, haroratni ancha pasaytirib yuboradi. Yanvar oyida o'rtacha havo harorati 0°C dan +2°C ga, qishda ba'zan -15°C dan -25°C gacha pasayishi mumkin. Yozi issiq va quruq bo'lib, uzoq davom etadi. Iyul oyida harorat kunduz kunlari ba'zan +44°C dan +47°C gacha ko'tariladi.

Havoning yillik o'rtacha harorati doimo +15°C dan yuqori bo'ladi. Yil davomida issiq kunlar 242 kunni tashkil etadi. Foydali haroratlar yig'indisi bir yilda 4533-4939 darajada saqlanib turadi.

O'simliklar uchun foydali haroratlar yig'indisi 2330-2991°C ni tashkil etishi Qarshi cho'lida ingichka tolali paxta yetishtirish va issiqsevar ekinlar ekish, shuningdek bir yilda bir maydondan ikki, uch marta hosil olish uchun juda qulaydir (L.N. Babushkin) [7].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tajribaning har bir variantidan va barcha qaytariqlardan 100 ta ko'sakdagi paxtasi terib olinib, ularda laboratoriya tahlillari o'tkazildi. Shu bilan birga, namunalarning tolasi HVI jihozida tahlil qilindi. 1-javdalda ushbu tahlil natijalarining e'tiborga moliklari keltirildi.

Defoliantlarni (Baystar SC va FanDEF-M) har xil me'yorlarini

1-jadval.

Defoliantlar va ularning har xil me'yorlarini g'o'za hosiliga va tola sifatiga ta'siri (o'rtacha 2020-2021 yillar)

Variantlar	Me'yorlar	Yalpi hosil, ts/ga	Bir terim salmog'i, %	Ikki terim salmog'i, %	SCI Grade	Mic	Mat (mat1)	UHML (in)	UI (%)	SF (%)	Str (g/tex)	Elg (%)	Rd	+ b
Nazorat	-	36,0	65,9	89,7	146	4,81	0,87	1,186	82,6	7,6	34,4	6,8	82,3	7,6
Baystar SC	0,5 l/ga	37,1	75,8	93,6	154	4,90	0,88	1,224	84,6	6,5	33,2	7,0	82,7	7,9
Baystar SC	0,6 l/ga	33,7	77,6	94,6	145	4,85	0,87	1,226	83,4	6,7	32,4	7,1	81,2	7,6
Baystar SC	0,7 l/ga	42,1	73,6	94,5	148	4,83	0,87	1,211	83,7	6,8	32,4	6,9	83,2	7,9
FanDEF-M	5 l/ga	39,0	73,4	93,2	148	4,88	0,87	1,215	83,7	6,9	32,8	7,3	82,0	7,7
FanDEF-M	6 l/ga	35,9	75,8	93,7	143	4,88	0,87	1,213	83,1	7,3	32,1	7,3	82,2	7,6
FanDEF-M	7 l/ga	37,1	78,1	95,1	150	4,88	0,87	1,224	84,5	6,6	32,1	7,4	82,2	7,6
Hosildorlikka nisbatan				r-	0,33	-0,09	-0,03	-0,10	0,26	-0,17	-0,12	-0,15	0,80	0,69
Ip yigiriluvchanlik koeffitsiyentiga nisbatan				r-		0,45	0,77	0,35	0,84	-0,67	0,14	-0,08	0,45	0,66
Mikroneyr ko'rsatkichiga nisbatan				r-			0,53	0,74	0,71	-0,57	-0,48	0,70	-0,08	0,15
Pishib yetilganlik koeffitsiyentiga nisbatan				r-				0,32	0,58	-0,46	0,23	-0,22	0,32	0,62
Yuqori o'rtacha uzunlikka nisbatan				r-					0,76	-0,89	-0,75	0,59	-0,26	0,18
Uzunlik bo'yicha birxillik indeksiga nisbatan				r-						-0,90	-0,41	0,37	0,25	0,49
Kalta tolalar indeksiga nisbatan				r-							0,52	-0,30	-0,02	-0,47
Solishtirma uzulish kuchiga nisbatan				r-								-0,71	0,12	0,03
Uzilishdagi uzayishga nisbatan				r-									-0,39	-0,42
Nur qaytarish koeffitsiyentiga nisbatan				r-										-0,75

kunlik o'rtacha harorat 25,0 °S dan yuqori bo'lganda Baystar SC defoliantini uch (0,5; 0,6; 0,7 l/ga) xil me'yori qo'llanilganda birinchi terim salmog'i 75,8; 77,6 va 73,6 % ni hamda FanDEF-M defoliantini uch (5,0; 6,0 va 7,0 l/ga) xil me'yori qo'llanilganda esa 73,4; 75,8 va 78,1 % ni tashkil etdi. Ya'ni Baystar SC defoliantini 0,6 l/ga me'yori va FanDEF-M defoliantini 7,0 l/ga me'yori sepilgan variantlarda birinchi terim salmog'i eng yuqori bo'ldi.

Defoliantlarning uch xil me'yorlari variantlarda yalpi hosilga nisbatan ikki terim salmog'i nazoratga nisbatan farqi yumshoq ta'sir etuvchi Baystar SC defoliantini 0,6 l/ga me'yori sepilgan variantda 4,9 % va nisbatan yumshoqroq ta'sir etuvchi FanDEF-M defoliantini 7,0 l/ga me'yori esa 5,4 % ni tashkil etdi.

Defoliantlar va ularning qo'llanilish me'yorlari tola sifatiga turlicha ta'sir etganligini ko'rsatdi. Paxta tolasining ip yigiriluvchanlik ko'effitsiyenti (Spinning consistency index (SCI)) tolaning uzunlik va pishqlik modulida aniqlanadi. Buning 150 birligi eng yuqori diapazon va 120 birligi esa eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Jadval ma'lumotlari defoliantlar ta'sirida tola ip yigiriluvchanligi nazorat (defoliant sepilmagan) variantiga nisbatan eng past (146) bo'lishi 0,5 va 5,0 l/ga me'yorlari sepilgan variantlarda va eng ko'p (148-154) bo'lishi esa defoliantlarni 0,7-7,0 l/ga me'yorlari sepilgan variantlarda kuzatildi.

Ya'ni tola defoliantlar ta'sirida yuqori va juda yuqori ip yigiriluvchanlik ko'rsatkichiga ega bo'ldi. Defoliantlarni o'rtacha me'yorda qo'llash esa ip yigiriluvchanlik ko'effitsiyentining nazorat variantiga nisbatan pasayishiga (145-143) olib keldi.

Tolaning ingichkaligi va pishib yetilganligi mikroneyr (Micronaire (Mic)) ko'rsatkichi bilan aniqlanadi. Tahlil ma'lumotlari defoliantlar ta'sirida tolaning dag'allashishini ko'rsatdi.

Tolaning uzunlik va pishqlik modulida hamda mikroneyr modulida aniqlanadigan ko'ndalang kesim bo'yicha pishib yetilganlik ko'effitsiyenti (Maturity (Mat)) aniqlanadi. Bu yerda 0,80 eng past va 1,00 eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Defoliantlar xillarini va ularning me'yorlari ta'sirida bu ko'rsatkichda keskin farq kuzatilmadi.

Tolaning yuqori o'rtacha uzunligi (Upper Half Mean Length (UHML)) tekshirilayotgan namuna massasining yarmini tashkil qiluvchi eng uzun tolalarning o'rtacha uzunligi bo'lib, dyuymda yoki mm da ifodalanadi. Bu borada defoliantlar xili va ularning qo'llanilish me'yorlari bu ko'rsatkichni 0,025-0,040 dyuymga yaxshilanishini yoki shtapel uzunligini 38 mm dan 39 mm bo'lishini ta'minladi.

Tola xomashyosining uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi (Uniformity Index (Unf)) uning o'rtacha uzunligining yuqori o'rtacha uzunlikka nisbati bilan belgilanuvchi ta'rif bo'lib, foizda ifodala-

nadi. Bu foiz qanchalik katta bo'lsa ip kalavaning sifati shuncha yuqori bo'ladi. Defoliantlar va ularning me'yorlariga bog'liq holda bir xillik indeksi nazorat variantiga nisbatan 0,5 va 2,0 % yaxshilandi. Qo'llanilgan ikki xil defoliantlarning ta'sir etishi ikki xil bo'lganligi sababli bo'lsa kerak, Baystar SC preparatini qo'llash me'yorini oshishi bir xillik ko'rsatkichiga salbiy ta'sir etgan bo'lsa, FanDEF-M preparati me'yorining oshishi bu ko'rsatkichga ijobiy ta'sir etganligi aniqlandi.

Kalta tolalar indeksi (Short Fiber Index (SFI)) namunadagi uzunligi 0,5 dyuymdan (12,7 mm) kalta bo'lgan tolalar ulushi bo'lib, foizda hisoblanadi. Diapazon 2 % dan 20 % gacha oraliqda bo'ladi. Tahlil natijalari tolaning bu ko'rsatkichiga defoliantlar va ularning qo'llanilish me'yorlari ijobiy ta'sir etib, defoliant xili va me'yorlariga bog'liq holda 0,3 % dan 1,1 % gacha yaxshilanganligini ko'rsatdi.

Solishtirma uzilish kuchi (Strength (Str)) paxta tolasining pishqligini bildiradi. Bu ko'rsatkich qancha katta bo'lsa tola shunchalik pishiq bo'lishini ko'rsatadi. Defoliantlar va ularning me'yorlari tolaning pishqligiga teskari ta'sir etganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga defoliant me'yorini oshirish ham uning pishqligiga teskari ta'sir etishi aniqlandi.

Tolaning uzilishdagi uzayishi yoki uning elastikligi (Elongation (Elg)) instrumental tizimdagi dinamometrda tolaning foizlarda ifodalanadigan uzayishiga aytiladi. Bu borada olingan ma'lumotlar defoliantlar xili va uning me'yorlari tolaning elastikligiga ijobiy ta'sir etganligini ko'rsatdi. Ya'ni defoliantlar ta'sirida elastiklik nazorat variantiga nisbatan 0,2-0,6 % ga yaxshilanishini ta'minladi.

Tadqiqot namunalarining tahlili bo'yicha tolaning nur qaytarish ko'effitsiyenti (Reflectance (Rd)), ya'ni paxta tolasini namunasi yuzasidan qaytgan yorug'lik miqdori va sarg'ishlik darajasi (Yellowness (+b)) ko'rsatkichlarida biror bir qonuniyat kuzatilmadi.

Xulosalar.

1. O'rta tola g'o'za naviga o'rtacha kunlik harorat 25,0 °C dan yuqori bo'lgan sharoitda qo'llanilgan Baystar SC defoliantini 0,6 l/ga me'yori va FanDEF-M defoliantini 7,0 l/ga me'yori sepilgan variantlarda birinchi terim salmog'i defoliant sepilmagan variantga nisbatan defoliantlarga mos ravishda 11,7 va 12,2 % ga yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

2. Defoliantlar xususiyatlariga va qo'llanilish me'yorlariga bog'liq holda tolaning sifat ko'rsatkichlariga turlicha ta'sir etadi. Ya'ni tolaning ayrim ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etsa, ayrim belgilariga salbiy ta'sir etadi.

3. Ushbu sifat ko'rsatkichlarini tahlili defoliantlarni samarali me'yorlari va muddatlarini belgilashda ularni tola sifatiga ta'sirini ham inobatga olish kerakligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR:

1. <https://www.med-konfitur.ru/articles/zelenaya-apteka/khlopkovoe-maslo/> Xlopkovoye maslo
2. Mirzaolimov A.N., Paxta defoliantlarining asosiy turlari va tavsiflari, Oriental Renaissance; Innovative, educational, natural and social sciences, Volume 2, May 2022, 251-259
3. Sug'oriladigan sharoitda dala va laboratoriyada paxtachilik sohasida o'tkaziladigan tajribalar metodikasi, Toshkent, 1962 yil.
4. Paxta bilan o'tkaziladigan dala tajribalarining uslubi, UzPITI Toshkent, 1981 yil.
5. Simongulyan N.G., Muhammedxanov S.R., Shafrin A.N. –Genetika. Seleksiya i semenovodstvo xlopchatnika, «Mexnat», Tashkent, 1987 g.
6. «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» Toshkent, 2007 y.
7. Babushkin L.N. Qashqadaryo viloyatining tabiati, . O'z Dav. Nashr. S.D.U., 1-jild, Toshkent-1959.
8. Buriyeva S.Z. Defoliants and their effect on the quality of fiber.//European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE). Vol.3 No.11, November 2022. P.13-15.
10. M.X.Khakimova, & S.Z. Bo'riyeva. (2022). The Amount of Different Forms of Iron Contained in Soils Formed in Tertiary Reddish Deposits. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 6, 157–162. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/1040>
11. N. E Chorshanbiev, S.Z. Buriyeva, E. Sh. Khazratkulov. Analysis of an Experiment Carried Out on the Lines and Varieties of Fine Fiber Cotton. Published in Universal Journal of... 1 January 2021. Agricultural and Food Sciences

MAKKAJO'XORI DALASIDAGI BEGONA O'TLARGA QARSHI XIMGLIFOS VA XIMSTOP GERBITSIDLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Mustafoeva Ozoda Ilashevna, doktorant,
Shodmanov Maxkam, dotsent,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada Toshkent viloyatining bo'z tuproqlari sharoitida makkajo'xori dalasidagi begona o'tlarning turlariga Ximglifos va Ximstop gerbitsidlarni qo'llashning ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ximstop, 33% e.k., 1,5 l/ga me'hrda qo'llanilganda bir yillik begona o'tlarni 86,2-89,5 % yo'qotib nazorat variantiga nisbatan 11,8 ts/ga ko'p don nosili olishni ta'minlaydi. Ximglifos 3,0 l/ga me'yorda kuzda va Ximstop gerbitsidi 1,5 l/ga me'yorda ekish bilan birga oldinma-keyin qo'llanilganda bir yillik begona o'tlar 90,5-93,2 %, ko'p yillik begona o'tlar 88,0-91,4 % kamaygan, nazorat variantiga nisbatan 16,7 ts/ga ko'p makkajo'xori don nosili olingan

Kalit so'zlar: gerbitsid, Ximglifos, 54% e.k Ximstop 33 % e.k., bir yillik va ko'p yillik begona o'tlar, makkajo'xorining don hosildorligi.

Аннотация. В статье приводятся сведения об эффективности применения гербицидов Химглифоса 54 % к.е и Химстоп, 33 % к.е. в посевах кукурузы в условиях типичных сероземов Ташкентского вилоята. При применении гербицида Химстоп, 33 % к.е. в норме 1,5 л/га количество однолетних сорняков снижается 86,2-88,2 %, и урожайность зерна повышается на 11,8 ц/га по сравнению с контрольным вариантом. При применении сочетания гербицидов Химглифоса из расчета 3,0 л/га и Химстоп в норме 1,5 л/га количество однолетних сорняков снижается на 90,5-93,3 %, многолетних сорняков на 88,0-91,4 %. Урожай зерна кукурузы повышается на 16,7 ц/га по сравнению с контролем

Ключевые слова: гербицид, Химглифос, 54% к.е Химстоп, 33 % к.е., однолетние и многолетние сорные растения, урожайность зерна кукурузы.

Abstract. The article provides the information on the effectiveness of the herbicide Ximstop, 33 % e.c. when sowing corn in conditions of typical gray soils of the Tashkent region. When using the herbicide Ximstop, 33% at a rate of 1.5 l/ha, the number of annual weeds is reduced by 86.2-89.5 %, favorable conditions are created for the growth and development of corn and the grain yield of corn is increased by 11.8 s/ha compared to the control option. When using a combination of herbicides Ximglyfos at a rate of 3.0 l/ha and Ximstop at a rate of 1.5 l/ha, the number of annual weeds is reduced by 90.5-93.3%, perennial weeds by 88.0-91.4%. Corn grain yield increases by 16.7 c/ha compared to control

Keywords: herbicide, Ximglifos, 54% e.s., Ximstop, 33 % e.s., annual and perennial weeds, weeds, corn yield.

Kirish. Begona o'tlar qishloq xo'jaligiga juda katta zarar keltiradi. Ular madaniy o'simliklarning hayot omillariga sheriklik qiladi, tuproqdagi oziq moddalar va namlikni behuda sarf bo'lishiga sabab bo'ladi. Makkajo'xori va boshqa ekinlar o'suv davrining boshlarida o'tning ichida qolib ketsa begona o'tlarning zarari nihoyatda katta bo'ladi, ularning salbiy ta'siri o'suv davrining keyingi fazalalarida ham namoyon bo'ladi, natijada hosil miqdori va sifati pasayib ketadi.

Ma'lumki, dalalarda har xil biologik xususiyatlarga ega bo'lgan bir yillik va ko'p yillik begona o'tlar o'sadi. Ularni yo'qotish ko'p kuch va mablag' talab qiladi. Qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlar begona o'tlarni to'liq yo'qotishni ta'minlamaydi. Bu borada gerbitsidlardan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Bir dalada bir gerbitsidni har yili qo'llash shu preparatga chidamli bo'lgan turlarni yildan-yilga ko'payib borishiga olib keladi. Kimyoviy kurash choralarning samaradorligini yo'qori bo'lishini ta'minlash uchun ta'sir doirasi har xil gerbitsidlarni oldinma-keyin yoki navbatlab qo'llash lozim[2,3,4].

Shundan kelib chiqqan holda biz o'z tajribamizda bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarga qarshi Ximglifos, 54 % e.k. bilan Ximstop, 33 % e.k. gerbitsidlarni oldinma-keyin qo'llashning samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordik.

Ilmiy tadqiqot ishlarida Toshkent viloyatining bo'z tuproqlari

sharoitida makkajo'xori dalasidagi bir yillik begona o'tlarga qarshi Ximstop, 33 % k.e. preparatining maqbul me'hrini aniqlash, Ximglifos, 54 % e.k. bilan Ximstop, 33 % k.e. gerbitsidlarini oldinma-keyin qo'llashning bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarga hamda makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi hamda hosildorligiga ta'sirini o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

Tadqiqot materiallar va uslub. Ilmiy tadqiqot ishlari Toshkent viloyatining bo'z tuproqlari sharoitida makkajo'xori dalasida o'tkazildi. Tajribada Ximstop, 33 % e.k. turli me'hlarda sinab ko'rildi. Shuningdek, Ximglifos, 54 % e.k. bilan Ximstop, 33 % k.e. gerbitsidlarini oldinma-keyin qo'llashning samaradorligi o'rganildi. Variantlar 4 ta takrorlashda joylashtirildi. Tajriba bo'laklarining eni 8 qator, o'lchami 144 m² Tajribani qo'yish, kuzatishlar, hisob va tahlillarni qilishda O'zPITda ishlab chiqilgan "Dala tajribalari uslubiyati" dan foydalanildi[1]. Ximglifos, 54 % e.k. gerbitsidi oktyabr oyining boshida o'sib turgan ko'p yillik begona o'tlarga yoppasiga sepildi. Suv sarfi 600 l/ga hisobidan olindi. Stomp, 33 % e.k. va Ximstop, 33 % e.k. gerbitsidlari makkajo'xorini ekish bilan birga tasma usulida sepildi. Suv sarfi 200 l/ga.

Natijalar va munozara. Gerbitsidlarning begona o'tlarga ta'siri. Qo'llanilgan gerbitsidlarning samaradorligini aniqlash uchun begona o'tlarning soni va quruq massasi makkajo'xorini birinchi va ikkinchi sug'orishlardan keyin, kultivatsiyadan oldin hisobga olindi.